


24
DINCHI KITOBIM

*Akmal
Murod*

Ko'z ochgan buloqlar



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач _____

8466 0929

БІРІНЧІ КІТОВІМ

Акmal Murod

КО'З ОСНГАН БУЛОҚЛАР

Publitsistik maqolalar



Cho'iron nomidagi nashr bo'lmagan, podiy uy'i
Toshkent - 2016 8466

UO'K 82-95(045)
KBK 76.01(50')

M 89

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» Respublika yosh ijodkorlari seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

Mas'ul muharrir:

Muhammad Ali — O'zbekiston xalq yozuvchisi

Murod, Akmal

M 89 Ko'z ochgan buloqlar [matn]: publitsistika maqolalar/A. Murod. — T.: Cho'lpon nomidagi NMITU, 2016. — 56 b.

ISBN 978-9943-05-805-7

UO'K 82-95(045)
KBK 76.01(50')

ISBN 978-9943-05-805-7

© Cho'lpon nomidagi NMITU, 2016

O'zbekiston Respublikasi
Mustaqilligining
25 yilligiga bag'ishlanadi

«QUYOSHDAY MEHRIBON VATANING — ONANG!»

1915-yil. Xivada shundayin bir qiz tug'ildi. Qiz emas, gul qiz tug'ildi — Anabibi. Qizgina qiz bo'lib boshqa tengdoshlari kabi beshtoosh o'ynamadi, bola bo'lib bolalik ko'rmadi. To'qqizida qo'llari go'dak tutarga kelib, o'zgalar bolasini yig'lasa ovutdi. O'ynatdi. Ko'tardi. Boqdi. Non topdi. Chindan Onabibi bo'ldi.

Husayn og'a Ismoilov (tuman xalq maorifi mudiri) kun qiyomdan og'ib uyiga qaytayotgan qizaloqni ko'rib qoldi-yu, to'xtadi. Beparvo o'tib ketmadi. Bibini, uning akasi Polvonn ham bolalar uyi tarbiyasiga olib bordi. O'zi esa ularning oilasini oziq-ovqat bilan ta'minlashda ko'lmakdosh bo'ldi.

Bibi o'qidi, o'rgandi. O'n to'qqizga to'ldi. Yo'ldosh og'amiz bilan umrini bog'ladi. Ne qilsin, umri butunlikka bog'lanmadi-da. Qirq birinchi yil edi o'shanda. Urushning daragi yetib, kelinchak mash'um tonglarning birida erini frontga kuzatib qo'ydi. Bir yil o'tmay qora xat keldi.

Xatlar ko'p bo'ldi. Xatlardan yig'ilar, yig'ilar-dan sag'irlar qoldi...

Hujjatlarda qayd etiladiki, 1945-yilda O'zbekiston viloyatlari va Qoraqalpog'istonda 268 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31 ming uch yuz nafarni tashkil etgan. Holbuki, urush arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi bor edi. Ularda 12 ming bola tarbiyalanardi. Urush tufayli ota-onasidan ayrilgan nora-sidalarini bolalar uylarigina emas, yuzlab o'zbek oilalari qaramog'iga olishdi. Toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning turmush o'rtog'i Bahri opa Akromovalar turli millat farzand-laridan 14 nafar, kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 nafar, buxorolik Muazzam Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar oilalari o'z bag'irlariga 8 nafar-dan bola olib tarbiyalaganini oliy insonparvarlik namunasigina emas, bemisal jasorat hamdir.

Anabibi Nazarova qirq yillik mehnat faoliya-tining o'ttiz yilini, bor mehri va muhabbatini urush yillarida qarovsiz qolgan bolalar tarbiyasiga bag'ishladi. Onamiz ulg'aytirgan o'g'il-qiz orasida xal yozguvchilar, dil yorguvchilar ko'p bo'ldi. Ulardan biri el sog'lig'i uchun tinib-tinchimagan, o'z kasbining fidoyisi, tibbiyot fanlari nomzodi Abdulla Ashurov edi:

«Stol atrofida o'tirar ekamiz, meni xayollar o'z og'ushiga tortib ketadi. 1942-yilni o'ylayman,

Qaytski, sizning huzuringizga yirtiq kiyim bosh, boshyalang, och holda kirib borgan vaqtim. Siz meni tugqan onam misoli quchoqladingiz. Yangi kiyim-kechak bilan ta'minlash uchun topshiriq berdingiz. Ming rahmat siz kabi onalarga. Men o'sha Abdullangizman. Bir umrga sizdan minnat-dorman, onajoni!».

Xivadagi Mehribonlik uyida ko'p ajoyib inson-lar o'sib-ulg'aydi, kamolga yetdi. Masalan, bozorda ballqichning qozoniga o't qalab o'tirganida olib kelingan bolakay — Otajon Yoqubov. Uning dardlari, kechimalari yozgan she'rlariga ko'chib o'tdi. Maqsud Shayxzoda taklifi bilan shoir Porloq taxallusida ijod qildi.

Yoki...

Taqdir hukmi bilan o'n yasharligida Mehri-bonlik uyida tarbiyalana boshlagan Sharif Rama-zonov musiqashunos olim, bastakor bo'lib voyaga yetdi. «Xolisxon», «Varga», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Asl farzand», «G'unchalar» musiqali drama va pyesalari, «Namanganning olmasi» kabi ashlulari uning kuylarida yashab kelmoqda.

Lochin Xonov esa otadan ayrilgan yo'qsil otlarning beshinchi farzandi edi. Noiltoj ona lochini bolalar uyiga topshirdi. O'n uch yashar bolakayning yuragiga siqqan, aslida, yuragini siqqan dardlar she'r bo'lib hosilaga aylandi. Keyinchalik u o'zining hikoyalari, feleton, qissa,

ilmiy va adabiy, tanqidiy va tahliliy maqolalari bilan matbuotda faol qatnashdi.

*Manzillarni sayohat etib,
Men janubga jo'natilman.
O'q-g'illamlar ustida yotib,
Bir kun quvonch bilan qaytaman...*

Ammo Lochin qaytmadi. Qaytolmadi. Mardona halok bo'ldi. Anabibi onamiz ana shunday fidoyi, otashnafas o'g'il-qizlarni kamol toptirdi. «Xalq maorifi a'lochisi» bo'ldi. Mehrbonlik uyi tarixi muzeyiga kirar ekansiz, onamiz suratlari bilan tilla shing, uzoq-uzoq dardlashgini, «Ayol»ni o'qib bergini keladi. Onalarning hammasi ham sizga o'xshaganida qaniydil! Vera Pak o'xshaydi, onajoni Mehr-muhabbatda o'zginangiz.



Suratdagi ayol — Vera Pak. U «O'zbekiston Qahramoni» bo'lishdan ham avval mehrga tashna bolalar qalbining bunyodkoridir. Quchoq'dagi qizaloq — Shahnozabonu Niyozmetova. Bilsangiz, bu suratning o'z tarixi bor. Bundan yetti yil muqaddam...

2008-yil. Urganch Davlat universiteti amaliy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan Gulruh Madrahimova malakaviy bitiruv ishi uchun «Sevgi

ma'budasini» nomli surat chizishga unyadi. Uni qanday tasvirlash ustida obdon o'ylanganiga qaramay, «Sevgi ma'budasini» ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan ahamiyatsiz topildi. Tasdiqdan o'tmay, rad etildi. Endilikda neni aks ettirish Gulruhning o'y-xayollarini chulg'ab olgan, diplom ishi tobora yaqin, oy va kunlar qisqarib borayotgani biroz hadlikli edi. Ana shunda onasi — jurnalist Muborak Eshchonova qizining joniga oro kirdi: «Vera Pakni chizsang bo'lmaydimi?»

Gap shundaki, Muborak opa ushbu muasasada bo'lib o'tadigan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni televideniye yoritib, qizalog'ini ham o'zi bilan tez-tez olib borardi. Qolaversa, mavzuning tarbiyaviy ahamiyati yuksak sanalardi. Bitiruvchi qiz ustoz Otamurod Matnazarovning tasviri san'at bo'bidagi saboqlari hamda ilmiy rahbari Rustam Latipovning ko'rsatmalariga tayanib suratni chizib bitkazdi. «Mehridaryo ayol» bitiruv malakaviy ishi himoyasidan so'ng universitet jamoasi tomonidan Mehrbonlik uyiga taqdim etildi.

♦ ♦ ♦
2005-yil. Chirchiq Oliy qo'mondonlik tank-muhandislik bilim yurtida bitiruvchilarga bag'ishlangan tantanali marosimga faxriylar, bitiruvchilarning ota-onalari, yor-u do'stlari tashrif buyurishdi.

— Bilim yurtining hurmati mehmonlari orasida men ham bor edim, — deya eslaydi Vera opa.
— U yerga jamoat arbobi sifatida emas, bitiruvchi-leytenant Bobomurod O'rozovning onasi sifatida borgandim. Bobomurod norg'ul va o'ktam yigiti bo'lib ulg'ayibdi, ofiserlik libosi biram yarashib turadiki...

Ona Bobomurodning yelkasiga boshini qo'ydi. «O'zbekiston ovozi», «Postda», «Ma'rifat»... Foto-muxbirlar «ushlab» qolgan oniy lahzani markaziy nashrlar betinim chop etdi: Vera Pak o'g'li bilan! O'sha kezlari matbuotda muxbirlar shunday yozadi: «Ziyoli, kantarin va bag'rikeng bu ayol suhbat davomida biz bexosdan aytib yuborgan «tarbiyalanuvchi» so'zini noziklik bilan to'g'riladi. Bunday tushuncha uning uchun mavjud emasligini, barchasi o'z farzandlari ekanini aytdi. U ham hat qanday ona singari o'g'li Bobomurodning hayotidagi ushbu muhim voqeadan faxrlanib so'zlad...»

Shunday kunlarning birida Termiz shahridan Farg'onaga ishga yuborilgan Radik Shamunov mehr topgan uyiga qo'ng'itroq qilib, onasiga dil yordi. Farg'onalik qizga ko'ngli tushganini aytdi. Urf-odalari, rasn-rusumlari ado etilib, qizgina Xivaga kelin bo'ldi. Sal o'tmay, Bobomurod ham onasiga iymanib so'z ochdi. Mehribonlik uyining yoshi ulug'lari maslahatga chog'landi. Gap bir

joyga qo'yilib, Buxoroyi sharifga sovcilikka o'tlanishdi. Bobomurodning murodi hosil bo'lib, bir qadimiy shahardan ikkinchi qadimiy shaharga kelinchakning poygadami yetdi. Mazkur dargohda bunday to'y-u tantana, kelinsalom sadolari qulog'ga tez-tez chalindi...

♦ ♦ ♦
Ey, nodir o'g'lon, jamalaks och qizaloq! Bo-shingda Vatanning bor, sen nuri yo'ldasani!

IJOD VA KURASH

O'ylasak, ikkovining ham o'z maydoni bor: ijod maydoni, kurash maydoni. Garchi ular ahaklan boshqa-boshqa, ammo mohiyatan bir-biriga uyqash. Bilsangiz, to'y-hashanda maydonga tushgan polvonning o'rtaga tikilgan vajdan umidi bo'lmaydi. Olishsa, oriya deb olishadi. Ijodkor uchun esa yozuv stoli, stul, lamp, qalam va qog'ozdan qadrdoni yo'q. Demak, bu maydon ichra so'zi halol ijodkor bilan o'zi halol polvonning kuragi yer ko'rmagay. Tog'ay Murod ana shunday adib o'tdi, Sayfiddin Hodiye ana shunday polvon o'tdi...

♦ ♦ ♦
1975-yil 11-sentabr. Toshkent. «Salom» choyxonasi. Bunda yig'ilayotgan qashqadaryoliklar

sevinchi ichiga sig'mas, chunki o'sha yili kitoblik Sayfiddin Hodiyev sambo bo'yicha Minsk shahrida o'tkazilgan jahon chempionatida birinchi o'rinni egallab qaytgandi. Tabriklash uchun cho'yxonaga oshiqib kelganlar ko'p bo'ldi. Ularning ichida notanish bir odam to'g'ri kelib polvonni quchoqlab oldi. Chempion o'zidan ham baquvvat, alpomishkelbat bu odamni tanimas, u esa quchoq'idan qo'ymay, negadir, ko'zlarida yosh bilan nuqul bir gapni takrorlardi:

— Rahmat, polvon! Rahmat sizga. Otangizga ming rahmat!

Bu odam Tog'ay Murod edi. Polvonni izlab borgandi. Bir muddat ikkala maydon qo'shilib keng bo'ldi. Maydonda ularga bas kelari bo'lmadi. Ko'rmasizmi, polvonning so'zlari adibona bo'ldi, adibning so'zlari polvonday bo'ldi:

— Sayfiddin, bilasizmi, kurash ajdodlarimiz — xalqimiz qoniga singib ketgan. Xalqimizning qoni toza, ildizi baquvvat. Bizning kurashchilarimiz polvonlik maktabida o'qimasa ham, maxsus joylarda tayyorgarlik ko'rmasa ham ularning o'zi shunday tayyor kurashchi-ku! Polvonlik bizga otameros, pushtidan-pushtga, qondan-gonga o'tib kelyapti. Polvonlikning ko'zga ko'rinmas, til bilan tushuntirib bo'lmaz shunday sirlari borki, buni faqat tomirida polvonlik qoni borlarga birladi. Bu sirlar hech bir kitobda yo'q! Eng mashhur

kurashchilarimiz ham gillalarda kurashmasdan, qishloqlarda bo'ladigan to'ylarda, katta-kichik davralarda kurashib ulg'aygan, suyasi qotgan.

Ikki soatga davom etgan subhat Sayfiddin Hodiyevning butun hayotiga singishib ketdi. Ko'p o'tmay «Sharq yulduzi» jurnali o'z sahifalarida «Yulduzlar mangu yonadi» asarini e'lon qildi. Unda polvonning ham nomi tilga olingandi. Kitobxon asarning o'sha sahifasini bir nafaqda o'qiydi. Shundayam polvonni bilganlar o'tgan xotiralarni ko'ngildan o'tkazib o'qiydi, bilmaganlar to'qimaga yo'yadi. Keling, o'shanda adibni yozuv stolidan «tortib olib» cho'yxonaga yetaklagan hikmatni asarning o'zidan o'qiyimiz:

— Mengboy kalning gapida jon bor. Kitoblik Sayfiddin Hodiyev bor-ku, yaqinda o'sha bilan o'tirib qoldim. Trenerlar meni jahon chempioni qilib yetishtirdim, deb suynadi, bilmaydilar, men bolaligidan to'ylarda olishib yurgan tayyor polvon edim, deydi.

— Aytganday, shu bola ikki marta jahon chempioni bo'ldi-ya.

— Ha-da, Mo'g'ulistonda qanday qilib jahon chempioni bo'lganini gapirib berdi. Olish vaqti tugashiga bir necha sekund golganda yonbosha olib urib ochko oldim, deydi. Bunday hunar boshqa biror olishda yo'q, faqat bizning olishimizda bor, deydi.

— Ota-bovamiyning hunarini mahkam ushla-sak, jahonning eng zo'r polvoni biz bo'lamizku-ya, nima dedingiz... («Yulduzlar mangu yonadi», 1976-yil. 45-bel).

Aytganimizdek, bir nafaslik dialog. Ammo ana shu bir nafas baxt ataldi. «Men qaytib kelaman» (Tog'ay Murod zamondoshlari xotirasida) kitobida polvonning o'zi bunday deydi: «Tog'ay aka «Yulduzlar mangu yonadi» qissasida meni ham tilga oldi. Bu narsa menga katta ta'sir qilgan, ruhlanib ketganman. Axir chekka bir qishloqdan chiqqan, to'ylarda kurashib katta bo'lgan menday oddiy polvoni Tog'ay Muroddan katta yozuvchi o'z asarida aytib o'tishi katta baxt emasmi? Shu asar orqali ham nomini butun el bildi. Bundan keyin ham biladi».

Xullas asar «yonbosh» ham bo'lmadi, «chala» ham. Halol bo'ldi. Kitob chin ma'noda pahlavonlik yo'rignomasi, yigitman degan uchun g'urur bo'ldi. Sayfiddin Hodiyeu uchun misoli igror bo'ldi: «...Kim biladi, Tog'ay aka bo'lmaganda men bu qadar katta polvon bo'lmashdim? Chunki men kurashning olin qoidalarini Tog'ay Muroddan o'rgandim! U kishi aytgan «Polvon o'zini uch balodan: birinchisi — ayolbozlik, ikkinchisi — ichkilikbozlik, uchinchisi — nafs balosidan asrasin» degan hikmatiga men ham amal qildim...»

O'sha kezlari yana bir ijodkor — ukrainalik Yan Dimov dunyoning eng mashhur kurashchilari haqida «Pahlavonlar do'stlik tufayli ham kuchlilirlar» kitobini yozdi. Ushbu kitob o'zimizda qayta-qayta nashr etilgan va payti bo'lganki, 150 ming nusxada chiqqan. Polvonlarni obdan kuzatar ekan, muallif ular haqida yozmoq uchun minglab kilometrlarni bosib o'tishdan ham toy-madi. Kunlarning birida u Qashqadaryoga keldi-da, Sayfiddin Hodiyeu ni qidirib topdi. Ilkov do'st tutindi. Yan Dimov shunday pahlavonni ulg'aytgan elning to'yida ham bo'ldi, ma'rakasida ham.

...Yozuv stoli, qadrdon stul, lamp va mashinka. Ijodkor maydonga chiqdi:

«Sportda kinga qiyin, vazn bilan tushuv-chilarga! Ayniqsa, vazn tashlovchilarga! Vazn — eng ashaddiy raqib».

Ba'zan bunagasi ham bo'ladi: kuniga kam deganda bir soat hammom bug'xonasida o'tirib, tog'in kunduz kunlari bir stakandan ziyod suv ichmaslikka ahd qilgan vazn tashlovchi sportchi kechasi uyqusidan turib suv jo'mragi yoniga keladi va ichadi. Ertalab taroziga oyog'ini bosadi-da, oh, deb yuboradi — qayerdan paydo bo'ldi buncha og'irlik?! U dabdurustdan qachon suv ichganini eslay olmaydi. Bilmaydiki, tushi aralash ichib qo'ygandi suvni.

Shunday hodisa ro'y bermasligi uchun Mels An do'sti Sayfiddin Hodiye bilan kechqurun kelib mehmonxona nomeridagi kran jo'mragini qattiq berkitib qo'ydi. Ertalab ular ikkovlashib ham kranni ocha olishmadi. Komandadagi eng kuchli va og'ir vazni Vitaliy Kuznetsovi chaqirishdi. U ham uddalay olmadi. Oxiri slesarni chaqirib, maxsus ochqichda bo'shatishga to'g'ri keldi, u ham laajjud edi: «Qanday qilib bunaga mustahkamlanib qolibdi-ya! Yap-yangi edi, hafta burun o'zim qo'ygan edim!» Bu ikki marta jahon chempioni Sayfiddin Hodiye hayotidan oddiy bir lavha, xolos. Bunaqasi juda ko'p bo'lardi. Hammasi alandan, achchiq alandan boshlangandi...

O'shanda kaltabaqayligi uchun hamqishloqlari uning yelkasi shapatlab: «Obbo, Saypicha, senam kurashmoqchimisani?» demish so'zlar matbuotda chiqdi. Sayfiddin Hodiye o'g'il bo'lib otasiga rahmat keltirguncha ozmuncha yo'l bosdimi. Axir chempionlik osmondan yog'ilmaydi-ku!

Bilsangiz, alarning zo'ri polvonda bo'ladi. Oriyatning zo'ri-da unda bo'ladi. Bir gal qo'shni qishloqlik qizilmag'iz, g'olib yigit surunkasiga to'rttasini chirpirak qilib yiqitganida Hodi polvonning-da qoni jo'shdi. Tengqurlari davrasida o'tirgan o'g'ilga yaqinlashib: «Tushasammi?» deya maydonga ishora qildi.

— Yiqilsam yer ko'tarar, — dedi-yu o'g'il o'rnidan qo'zg'aldi.

— Yiqilsang men ko'tarmayman, shuni bilib qo'y. Meni uyatga qo'ymasan?

Sayfiddinning qoni qaynadi, oriya keldi. Qo'l ellik o'rta tushdi. Uchinchi marta raqibi bilan bel ushlashib, otasidan o'rgangan «tepki chil» usulini qo'lladi. «Gup» etib yiqilgan raqibini mahkam bosib olganida esa tomoshabinlar qiyqirib yuborishdi. Hodi polvon yugurib kelib o'g'ilni dast ko'tarib oldi-da, davra aylantirdi. Polvonlik qonida bor-dal

♦ ♦ ♦

Ijod va Kurash.

O'ylasak, ikkovining ham o'z maydoni bor. Shakkian boshqa-boshqa, mohiyatan uyqash. Ko'ring, ikkalovida ham raqibga o'zining kim ekanini ko'rsatib qo'ymog bor. «Mana, men kimman!» demog bor. Tog'ay Murod ana shunday adib o'tdi. Sayfiddin Hodiye ana shunday polvon o'tdi...

KO'Z OCHGAN BULOQLAR

Nazdimda, ijodning onasi iste'dod. Aytish-laricha, iste'dod buloqqa o'xsharmish. Bir marta ko'z ochsa, qaynab chiqaverarmish. Shu ma'noda bugun teran fikri, yuksak salohiyati bilan dunyo e'tiborini o'ziga qaratayotgan, aniq maqsadli,

azm-u shijoatli, ta'bir joiz bo'lsa, qaynarbuloq yoshlar oramizda ko'p. Jumladan, tasviriy san'atda ham.

Yosh rassomlar — Munisa Bo'ronova, Rashidjon Aliboyev, Muhabbat Musaxonova yuragiga ijod cho'g'i tushgan ana shunday iqtidor egalardan. Ular chizayotgan suvratlarda nafs san'at maktablarining o'lmas an'analari zamonaviy rangtasvir bilan uyg'unlashganini kuzatdik.

O'n yetti yosh hayratlari

2014-yil, may. Moskva.

Xalqaro yoshlar ijodi va pedagogik innovatsiyalar festivali doirasida o'tkazilayotgan tasviriy san'at tanlovida uch nafar ishtirokchi — O'zbekiston, Fransiya va Eron davlati vakillari yakuniy bosqichda qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. Fransiyalik yosh rassom o'z asarlarida, asosan, yangi manzaralarini aks ettirgan, eronlik ishtirokchi suvratlarida Ayol yetakchi obraz sifatida gavalangandi. Hamyurtimiz Munisa Bo'ronova esa tanlovda «Ming bir kecha» turkumida yaratgan miniatyuralari bilan ishtirok etmoqda edi...

Munisa Bo'ronova 1998-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Otasi — Davlat Toshhev musavvir, miniatyurachi rassom bo'lgani bois qizcha bolalik kezlardan bo'yog'lar olami ichida ulg'aydi.

— O'shanda otam chizgan suvratlar etaklarga o'xshardi, — deydi yosh rassom biz bilan subbatda. — Ayniqsa, ularning bittasi meni hamisha taajjubga solgan, xayolimni band etgan. Suvratda hayvonlarning barchasi fil ko'rinishida tasvirlangan edi. O'sha vaqtda tasvirning majoz ekani miniatyura ramzi ekanidan shuni angladimki, otam o'sha miniatyura orqali barcha hayvon(majozan inson), katta-kichik bo'lishidan qat'i nazar, vujudida kuch-gudrat borligiga ishora qilgan. Ushbu suvrat mening miniatyura san'atiga qiziqishimni kuchaytirgan.

Munisaning yetti nafar amakisi ham musavvir. Demak, iste'dod nasl suradi. Avvaliga u rangni rangdan farqlash uchun ustozlar ijodidan nusxa ko'chirdi. O'zini shu zayl rassomlikka tayyorlab bordi.

— Chetdan qaragan kishiga miniatyura chizish osondek tuyuladi. — O'ziga qimmatli davom ettirdi Munisa. — Bir qarashda shunday tuyuladi, bitta miniatyura yaratish uchun qanchadan qancha kitob mutolaa qilish kerakligi kash etilgan. O'ziga ayon. Aytaylik, o'sha obrazni davlatlarning o'ziga ayon. Aytaylik, o'sha obrazni davlatlarning o'ziga ayon. Aytaylik, o'sha obrazni davlatlarning o'ziga ayon. Aytaylik, o'sha obrazni davlatlarning o'ziga ayon.



Shu aqidaga rioya qilgan Munisa suvrat chizishdan avval turli afsona va rivoyatlar, mumtoz adabiyot namoyandalariining tashbeh, istioralarga boy g'azal va ruboiylari, dostonlarini o'qidi.

— «Xamsa»ni mulolaa qilarkanman, tasavvurimda hazrat Navoiy rassom bo'lib gavdalana-veradi. Hazratning so'z bilan chizgan tasvirlari miniatyuraning o'zginasiday, hayratim oshadi.

Shu o'rinda mumtoz adabiyotda ranglarga katta ma'no yuklanganini ta'kidlash joiz. «Farhod va Shirin», «Sab'at sayyor» dostonlarida turli ranglar vositasida ifodalangan qasr ko'rinishlari kitob-xonga estetik zavq beribgina qolmay, ular so'z vositasida chizilgan miniatyuralar sifatida muayyan dramaturgik vazifani ham bajaradi.

«Sab'at sayyor» dostonida Bahrom shanba kuni mushkofom qora liboslarda, qora rangli gumbazda tasvirlanadi. Bir qarashda, qora rangni oshiq ko'nglida kechayotgan g'uluvga yo'yish mumkin va bu ham yanglish bo'lmaydi. «Qora» so'zi tarixan katta, buyuk degan ma'nolarni ifodalashi nazarda tutilsa, qora rangli gumbaz vositasida oshiqqa ato etilgan ishqning buyuk dard ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Hozir Respublika rassomlik kollejiida tahsil olayotgan o'quvchi-qiz ijodida Hasan Isqov, Anvar Mamajonov, Erkin Jo'rayev kabi ustozlar sabog'i va tajribasi ulkan maktab vazifasini o'tamogda.

Moskva shahrida bo'lib o'tgan tanlovga qaytsak.

...Hay'at a'zolari ishtirokchilar chizgan suvratlardan birini ko'rsatib, uning yaratilish tarixi, g'oyasi haqida savol berishardi. Navbat Munisaga yetganda chekkaroqda turgan miniatyura tanlanib, izohi so'raldi.

— Mana shuni deb, imlab, javobimni kutayotgan hay'at a'zolari yodimdan chiqmaydi, — deya tanlov xotiralari o'rtoqlashdi u. — Miniatyurada tabobat ilmining dahosi, mutafakkir bobomiz Ibn Sinoni g'ammok holatda, qo'lida rayhon bilan o'tirgan qiyofada tasvirlagandim. Asar rivoyatga aloqador. Unga ko'ra, Ibn Sinoning suyuqli shogirdlaridan biri og'ir dardga chalinadi. Ustozi harchand izlamasin, xastalikka davo topolmay, shogirdi vafot etadi. Keyinchalik dardning shifosi rayhon ekani ma'lum bo'lib, ustoz o'z shogirdini vaqtida saqlab qololmaganidan kuyinadi.

Suvratning ijod tarixini tinglayotgan zal o'rindan turib, qizchani olqishladi. Yosh rassom iqtidori olam ahlining Ibn Sino dahosiga hurmati bilan uyg'unlashib, ehtirom topdi.

Munisa o'tgan yilning o'zida «Obrazlar, taqdirilar va xatlotlik san'ati», «Sharqqa sayohat» (Moskva); «Ipk yo'li sirlari» (Lyuksemburg) kabi ko'rgazma va tanlovlarda qatnashib, taqdirlangan.

Munisa Bo'ronova singari iqtidorli yoshlar atrofini atrofimizda ko'p. Ulardan biri — Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti magistranti Rashidjon Albboyev ham umidi miniatyurachi rassomlarimizdan.

Eng nafis shakl

Rashidjon 1991-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Otasi Tohir aka — quruvchi, onasi Nargiza opa — musiqi o'qituvchisi. Odatda, oilada kimgadir havas qilib kash tanlash hollari ko'p uchraydi. Ammo Rashidjonda bunday bo'lmadi.

— Avvaliga musiqi to'garagiga olib borishgan, — dedi bolalik kezarini eslab Rashidjon. — Rubobga qo'lim kelishmadi, doira chalb ham qoyillatmadim. Chunki ushbu to'garaklarga o'zim istab-istamagan holda borardim. Keyin karatega qatnadim. Yodimda, o'shanda mashg'ulot zalida o'tirib soatning tezroq o'tishini intiqlik bilan kutardim.

Shunday kunlarning birida Rashidjon muk tushib qog'ozga naqsh solib o'tirardi, ota-onasi ilg'adiki, o'g'lining rassomlikka uquvi bor ekan. Endi uni Mirzazoir Mirzamuhamedovning rassomlik to'garagiga yetaklashdi. Bolakayning chizishga ishtiyogi shu qadar ediki, darslarga o'z

vaqtdan oldinroq boradigan odat chiqardi. Natyurmort, manzara janrlarida suvratlar chizib, qo'li kelib qolgach, naqqoshlik va miniatyura san'ati bo'yicha tahsil ola boshladi.

— Meni miniatyuralar ko'proq hayratga solar, bitta rangning turli ifodasidan zavqim oshardi. Tasavvur qiling: lojuvard osmon, osmonga tutashib ketgan moviy tog', tog' bag'rida sharqiroq chashma, chashmaga engashib bir qiz ko'zasini suvga to'ldirmoqda... E'tibor bersak, osmon — ko'k, tog'lar ham, chashma va hatto ko'za ham ko'k. Ammo ularning barchasi kompozitsiyada yaqqol ko'rinadi, biri ikkinchisiga qorishib ketmaydi. Demak, har bir rangning o'z ma'nosi bor.

Rashidjon fikrlarini ko'proq ramzlar orqali ifodalashga, eng kichik detalga ham mazmun yuklashga urinadi. Cho'lpomning «Go'zal» she'riga, Fitratning «Arslon» dramasiya ishlangan miniatyuralarida bu ayniqsa seziladi.

— Aniq voqe'elni suvratga ko'chirish osonroq, chunki manzara ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalanaadi. She'riyat esa tamoman boshqacha. Undagi tashbehlar, qochirilmalarni tasviriy san'at tiliga ko'chirish murakkab jarayon. «Go'zal» she'ridan quyidagi misralarni olaylik:

*Ertal tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'lganda so'rab ko'rmen...*

Shamolning sochlarini yoyib, yonginamizdan o'tib borishi — bu tajinis, jonlantirish san'ati.

Ammo uni suvatda qanday tasvirlash mumkin?

Rashidjon ushbu misralarni uchqur otlar timsolida miniatyura ko'chirdi. Bu bilan yosh rassom asarning lirik jozbasini oshirdi.

Yoki «Arslon» dramasiqa ishlangan turkum miniatyuralari haqida to'xtalsak. Ma'lumki, ushbu drama Buxoro amirligi davridagi dehqonlarning og'ir hayotidan hikoya qiladi. Rashidjonning asarga miniatyura ishlashda qanday yondashgani bilan qiziqdik.

— Avvalo, asarni aynan suvat chizish uchun emas, qunt bilan o'qib chiqilgani ma'qul, — dedi u. — Qunt bilan deyilganda shuni nazarda tutayapmanki, obrazning tashqi ko'rinishi barobarida uning ichki olamiga kirish o'ta muhim. Miniatyura Arslon, To'lg'inoy yoki Mansurboyning liboslarini faqat tarixiy jihatdan aks ettirishning o'zi kamlik qilardi. Arslon yo'qsil yigit, tabiat ham shunga monand. Mansurboy o'z nomi bilan boy, sudxo'r. Ular o'rtaasidagi ziddiyatni ranglar vositasida talqin etishga urindim. Bunda to'q ranglar, zartir to'n va chilim detallari boy shaxsini xarakterlasa, Arslonning ruhini ifodalashda och ranglar qo'l keldi. To'lg'inoyni sariq ko'ylakda tasvirlash orqali ayrilqqa ishora qildim...

Ochig'i, miniatyura deyilganda ko'p hollarda

muntoz adabiyot namunalariqa ishlangan suvatlarni tushunamiz va bunga odatlanib qolganimiz. Birdan xayolimizda shahzoda-yu malikalar jonlanadi... Rashidjonning yaqin o'tmish va ayni zamon voqealariga murojaatidan keyin bugungi hayotni, mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni miniatyura mezonlarida ham ifoda etish imkoni borligini ko'ramiz.

— So'zingizda jon bor, — deb fikrimni ma'qullagach, o'z mulohazasini bildirdi yosh rassom. — Ammo nazariy jihatlarni ham e'tibordan chekda qoldirmaslik kerak. Bir qarashda, miniatyuradagi obraz va detallarning joylashuvi soddada ko'rinsada, ular murakkab geometrik asosga ega. Rangtasvirga oid ijodiy ishlarda nur, soya, teranlik bilinadi. Ularda uzoqdagi tasvir oldinroqdagi tasvirga nisbatan o'z masofasiga qarab kichikroq yoki aksincha ifodalangan bo'lishi mumkin. Ammo miniatyurada tamoman boshqacha — obrazlar birdan qanchalik uzoq-yaqinda turgan bo'lmasin, barchasi bir xil kattalikda aks etadi. Miniatyuralarni shuniisi bilan ham eng nafis shakl deyish mumkin.

Rashidjon Aliboyev «Bu zamin — mening Vatanim», «Ijodim ilhomini o'zingasan, Vatan!» singari tanlovlarida faxrli o'rinlarni egallab, badiiy ijodda erishgan yutuqlari uchun taqdirlangan.

«Uygʻongan kurtaklar izhori» shaxsiy koʻrgazmasi yosh rassom ijodining kurtak yozayotgan tuygʻularidan soʻz ochdi.

Bu SOʻZ Muhabbat Musaxonova ijodida tamoman oʻzgacha jilolanadi.

Ijodim ilhomini oʻzingsan, Vatani

Muhabbat 1991-yili Toshkent shahrida tugʻilgan. Uchtepa tumanidagi Respublika sanʼat maktab-internatida, soʻng Respublika rassomlik kollejida, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida tahsil olgan. Hozir institut magistranti.

Muhabbatning ijodini kuzatar ekamiz, manzara janri yetakchi ekaniga guvoh boʻlamiz. «Kun botishi», «Ota hovlim», «Oqtoʻsh manzarasi», «Onalik baxti» singari asarlarida yosh rassom ranglarni tafakkuriga oʻylov tashlagan lahزالar bilan uygʻunlashtiradi.

— Tabiat manzaralari ijodga undaydi, — deydi u. — Vogelikni boʻrtirib yoki tabiiy holicha ifodalashga urinaman. Biror manzara koʻzini quvnatsa yoki kayfiyat bersa, chizib ketavermayman. Fikrimcha, manzara tabiatdan nusxa koʻchirish emas, balki ilhomlanishdir. Shuning uchun ham manzara janrida ijod qiluvchi rassomlar koʻproq goʻzalik shaydosi boʻladi. Sharros

yogʻayotgan yomgʻir, tom tagi boʻylab tizilgan sumalak, chaqmogʻ chaqishi, koʻkda suzib yurgan bulutlar, butut toʻsgan oy ham, boringki, havoda uchqunlayotgan qor ham ularga bolalarcha quvonch ulashadi.

Muhabbat tabiat va insonni qiyosan chizadi. Masalan, uning «Ishq ila umr barhayot» asarida keksa boʻlishiga qaramay, hamon gullayotgan daraxt tasvirlangan. Daraxt soyasidagi oʻrindiqda esa chol bilan kampir bir-biriga termulib oʻtiribdi. Ana shu termulishning oʻzida ichki hissiyot, balki bu — valodir, sadogat yoki hurmat, yashab oʻtilgan umrga shukronalikdir — barchasini sezamiz. Muhabbat keksaygan daraxt orqali umrga, uning hamon gullayotgani vositasida koʻngliga ishora qiladi.

— Boshida chol-kampirni soʻlim majnuntol tagida tasvirlash xayolida edim, — deya suvat tartixi toʻgʻrisida maʼlumot berdi rassom. — Koʻpincha yoshlik, ishq tushunchalari majnuntol bilan muvofiq keladi. Ammo shunday chizganimda qaddi egik majnuntol bityoqlama tasavvur uygʻotardi — maʼno koʻproq yoshlikka tushib, umr mazmunini anglashilmay qolarli.

Muhabbat rangtasvirining boshlangʻich koʻnikmalarini onasi — Saodat Moʻminovadan oʻrgandi. Turli taʼlim dargohlarida Muyassar Ibrohimova, Zayniddin Faxriddinov, Muhammadyor Tosh-

murodov, Jur'at Rahmonov kabi ustoz musav-
virlardan mahorat sirilarini o'rgandi.

2012-yili Muhabbat Musaxonova «Ustozlariga
tashakkur» nomli ilk shaxsiy ko'rgazmasi bilan
o'z iqtidorini namoyon qildi. O'shanda matbuot
sahifalaridan birida «Iste'dod kurtak yozmoqda»
deya xabar berildi. O'tgan yili tashkil etilgan
navbatdagi — «Ilk qadam» nomli ko'rgazmasi
esa yosh rassom iste'dodi haqiqatda ko'z ochga-
nidan dalolat berdi. Ko'rgazmadan o'rin olgan
manzaralarda Vatan siyrati bo'y ko'rsatib, ularda
yurt koriga yarashlik baxti o'z aksini topdi. Shu
ma'noda Muhabbat ilhomni g'oyibdan izlamas-
ligiga amin bo'lamiz.

Xulosa o'rnida

Rivoyat qiladilarki, bir odam o'g'ilining yelka-
siga qo'llini qo'yib:

— O'g'lim, kim zo'r? — deya so'rabdi.

— Men zo'rman! — o'g'il hech ikkilanmay
javob beribdi. Ota o'g'iliga ikkinchi bor yuzlangan
ekan, tag'in: — Men zo'rman! — debdi o'g'il
o'ylab ham o'tirmay.

O'g'ilning javobi ko'ngliga malol kelib, ota
ming bir o'yda eshik tomonga qo'zg'alar ekan,
ich-ichida hukm surayotgan g'alayon qadam
olgani qo'ymay, ortga o'griilibdi:

— Kim zo'r, o'g'lim? — uchinchi bor so'-
rabdi u.

— Siz zo'rsiz, otal!

O'g'ilning bu galgi javobi otani taajjubga
solibdi.

— Ikki marta so'raganimda men zo'rman
deding, endi bo'lsa...

— Ikki marta so'raganingizda ham qo'lingiz
yelkamda edi, otal! Uchinchi marta so'raga-
ningizda yelkamda qo'lingiz yo'q edi...

Bu bir rivoyat — xalqning aytishi.

Demogchi bo'lganimiz, bugun biz erishayotgan
yutuqlar, ijodiy yuksalishlar, zabt etayotgan
marralarda ko'plarning ulushi bor. Yoshlar ijodida
kun sayin namoyon bo'layotgan iste'dod
uchqunlari ana shunday fikr yuritishimizga asos
bo'ladi. Holbuki, ulardan faqat uch nafari xususida
ma'lum qildik. Inson ruhiyatini portret janrida
yoriylayotgan Sarvinoz Qosimova to'g'risida
aytmadik hali. Haykaltaroshlik san'atiga lirik-
falsafiy nuqtayi nazardan yondashayotgan Gulmira
Abdullayeva haqida ham bir og'iz so'z demadik.
Ijodiy ishlarida tarixiy mavzular va milliy qad-
riyatlarimizni aks ettirayotgan yosh rassom, «Eng
ulug', eng aziz» respublika ko'rik-tanlovi g'olibi
Malika Jo'rayeva ijodiyotiga to'xtalmadik... Bunday
iqtidor egalari ijtimoiy hayotning turli jabhalarida
ko'z ochayotir.



Xalq bilib aytadi: Vatanning — otang!
Ota qo'lini sezgan yelkalar yegilmaydi!
Vatan qo'lini his qilgan yelkalar bukilmaydi!
Otamiz qo'llari yelkamizda bo'lsini!
Vatanimiz qo'li yelkamizdan tushmasini!

O'RDAKCHI MOMO NIMA DEYDI?

Qaysi gapi jonimdan o'tib, qo'rsiligim tutdi,
bilmayman. Shaloq so'z og'zimdanda lop etib chiqib,
qo'shni qiz tutaqib ketdi. O'zimni oqlashga
harchand urimay, vaziyat yumshamadi. Qaytanga
jazavasi qo'zib, battar tutaqdi. Bundan keyingi
holatni tasavvur etgan bo'lsam, o'yladimki, «senga
yarashmas ekan» deb koyib beradi. Balki kura-
gimga urar, nari borsa, yuzimga shapaloq tortar
(ayabroq). Zinhor ortig'i emas. Qo'llidan nimayam
kelardi yana?

— Endi o'zingdan ko'-o'-o'-o'ri!

Ortga o'g'iriganimi bilaman, mushday kesak
boshimga tegdi-yu, sachrab ketdi. Manglayim
jimirlab, qulog'im shang'illadi. Qosh-ko'zim
achishdi. Bu haqda hech kimga miq etmadim.
O'zingiz o'ylang, anuv Zilol yordi boshimni desam,
«yutibsan-da qiz boladan tayog' yeb» deysih-
maydimi? Ustimdanda kulishmaydimi? Ko'rastkich
barmog'ini niqlab, uzog'dan bo'lsa ham mazax
qilishmaydimi? Hali onam nima deydi bunga?!



28

Akalarim-chi? Opamlar-chi? Bunyam qo'yaturing,
o'rdakchi momo nima deydi?

Kesak tekkan bosh bilan o'rdakchi momoning
necha pullik ishi bor? Onamning yoki otamning
onasi bo'lganida ham, tushunardim. Qulog'indanda
cho'zay desa, u kishi mening momom emas. Qo-
laversa, momomning o'rdaklari yo'q. Unda momo
senga kim bo'ladi, eslab qolibsan, dersiz. Rostdan
ham, o'rdakchi momo menga kim bo'ladi o'zi?

Xullas, yigirma yilcha avval.

— Oyog'im og'riyapti, bosgini! — dedi mo-
mom.

— Qo'llim bilammi?

— Qo'llaringda kuch yo'q, oyog'ing bilan chiq,
— dedi. Karavolda yotgan momomning oyog'larida
uch-to'rt lapanglagan bo'ldim-da, so'rab ham
o'ltirmay polga sakradim. Indamadi. Kulimsirab
bosh chayqadi. So'ngra hassasini devorga bemador
taqab, teparoqdagi chiroq yoqigichga bir-ikki
marta tirkadi. Uchinchi yo to'rtinchisida o'xshadi,
chamasi, chiroq o'chdi. Televizordan taralayotgan
nurni hisobga olmaganida, momomning xonasida
har oqshom ana shunday hukm o'qilardi —
qorong'ulik. Karavolning g'ichir-g'ichiridan pay-
qadimki, orqada momom tizzalarini qo'llari bilan
siqib, og'riq zo'ridan mushumlalab o'tiribdi.

«Oddiy Mariva». Yetinchi qism. Yetti safardan
berti qo'shig'i iltimiga ko'chgan. Kamiga mo-



29



momning iltimosini rad etib, Mariyaning endigi taqdiri nima bo'larkin, degan o'yda televizorga kirib ketgudek bo'lib voqealar rivojini kuzatib yotbman. Sizga yolg'on menga chin, muzday bir nima kattinga tegibdiyam, sezmabman.

Serial tugadi. Momom yotgan joyida hassasini chiroq yoqgichga uch-to'rt marta tirkab, o'shancha to'qillatib, biri tegib — biri tegmay, chiroqni yoqdi. O'rimindan qo'zg'aldim. Ana shunda kaftimda kulcha bo'lib o'ralib yotgan ilon bolasini ko'r-dim-u, jonim chiqayozdi. Chiyillab, qo'lindan olib yubordim. Diydori o'chgur, havoda buralib uchdi-da, momomning etagiga tushdi.

Momom karavotdan sakrab turib etagini sil-kidi:

— Chiyillamay o'l, o'takamni yording! — yoqasi ichiga tufufladi. Ilon bolasi polga silliq tushib, sudralib karavot tagida g'oyib bo'ldi. Mo-mom yarim engashib, cho'lloq supurgini karavot tagiga sug'di. Ikki bor yugurti. Ikkinchi martasida ilib chiqdi. Boyagi holat yodimga tushib ses-kandim. Junjukdim. Rangim o'chdi. Yig'lashdan beri bo'ldim.

— Hiq-qil-la-ma! To'xtat yig'im! O'g'il bo-layam yig'laydimi? Vahimangga o'lay! Shunga shunchami? — momom pinagini ham buzmay, ilonchani hokandozga supurib, derazadan tashga-riga oldi.

Uyqu oldidagina yodimga tushdi: o'tgan gal rus tilchimiz altini bujmaytirib: «She'mi yodlamay kelganlar o'zidan o'pkalasin, darsga qo'y-may-mana», degandi. «Shagane» sumkamga qanday solingan bo'lsa, shundayligicha turibdi.

♦ ♦ ♦

Yillar o'tdi.

Keyin bolalik.

Momom ham.

O'shanda tong edi. Havo dim edi. Uyquli ko'zlarim bilan supaning hali quyosh nuri tush-magan — soya joyini axtardim. Yotgan holimda alljldim. Ammo quyosh ko'chib, yana ko'chib, taq'in ko'chib, surilib boraverdim. Axiri yotgulik joy ham qolmagach:

— Tur endi, — onam qo'lida chelaklari tarag-turuqlab, boshlarida ro'moli yalt-yult, supa yonidan o'tib borardi. — Otaniyoz kalning qizlari qachon turganini bilasanmi? Siyirlarini sovub, oltizga boylab, har biri ikki bov o't o'rib, valsapitina yuklab, uyinda choyini ichib o'tiribdi.

Otaniyoz kalning qizlari bor bo'lsin! Meh-natda pishgan, ishdan qochmaydi. Lekin hech tushunmayman, ularning menga nima daxli bor: erta uyg'onmasang ham, biror ishini ko'ngilda-gidek bajarmasang ham — Otaniyoz kalning qizlari...

— Voy, voy oyog'ing singur, qush bo'lmay har balo bo'li — onaning ovozigga supadan hovliqib tushsam, yerda yotgan ro'molni olib endi silkiyotgan ekan.

— Nichcha aytdim, shu ro'molni boylamang, boylamang shu ro'molni deb. Boshqa ro'molingiz yo'q bo'sayam bir gapidi, — hali uyqum ochilmaganidan ohangim do'rillab chiqdi, xuddi o'dag'aylayotganday.

— Biror marta ko'rdingizma, singlima yo biyimlarga otlidini shu mayna? Tegdimi shu qush? Faqat siza yopishadi, faqat sizi tortqiliydi. Hammasi iyslu yaltiroq ro'molni boylab yurga-niyizdan!

Maynaning yaltir-yultir narsalarga o'chligi nechog'lik haqiqat ekani menga gumon, ammo o'sha ro'molning onamga jonday aziz ekaniga shubham yo'q — momom tikib bergan uni. Ertaroq yodimga kelganida «shu ro'molni boyla-mang» deyish uyog'da tursin, miq etmasdim.

Onam bir og'iz ham gapirmadi. Ag'anab yotgan chelakni oldi-da, yonginamdan ma'sum o'tdi. O'tib ulgurmovdi, aslida. Bir ari uchib kelib, tomog'imga qo'ndi. Jizillaib chaqdi-ku. «Voh!» deb yubordim. Onam tomog'ida yopishib turgan arini ko'ribog, qo'llari bilan yulib oldi. O'tib yubordi.

— Og'rimadimi? — dedi.

♦ ♦ ♦

Bir gal...

Oyog'imdian boshimga qadar qip-qizil aftoda: qizil qo'lyop, qizil etik, qalpog'im qizil, yelkam-ga ilib olgan qopcham ham, po'stin qizil, xullas — qip-qizil... Bayramga oshiqdim. Uydan yiroq-lab ulguraganimda esa o'tkinchi ovoz yo'ldan qaytardi:

— Shoshmang, Qorbobo! — dedi.

Chang tanish. Uni oldin ham eshitganman. Qaytildim. Eilik qadamcha narida — quyug tuman ortida qoramtir sharpa kutib turardi. Tumanni har qadam kesganim sayin bu sharpa men tanigan va burnat qilgan qizga aylanib borar, eslashga utindim: Zaynradmi? Yo'q, uning ovozi bunchalar dag'al emas, yana bo'ylari uzun. Gulasalnikin? Yo'q-a, jur'ati yetmaydi uning. To'xtatishga yutragi dov bermaydi. Demak, u ham emas.

Tuman tobora siyraklashdi.

Tarqadi.

Tandim.

Axir bu... Zilol, Zilol bu! O'sha — boshimni yotgan qizi! Boshqa kimning ham jur'ati yetardi.

— Bolam uchuvchi bo'lam deyman, — samo-lyot suvratl tushirilgan qutini qopga soldi u. Men ekanimni bilmay yo'l boshladi. Kirdim. Bolakayni o'zimga cho'rtladim. Kelmadi. Yugurib borib keng-ko'ylak onasi — Zilolning etagiga berkindi.

Oyoqlaridan quchib oldi. Erkalandi. Suykaldi. Yo'qsa sovg'a bermasligimni eshitgach, etak ortidan zimdan mo'raladi. «Qoybobomiz oppoq», deb boshlab qoldi.

Tilimga shakari! Xo'hiramda xiralashib borar tasvirlar g'ira-shira bo'lsa-da, esga keldi: loysuvog uy, uy oldida shoxlari tarvaqaylab ketgan gujum, gujumga boylangan savat, savatdagi olmalar, kulcha nonlar, jussasi qartaygan momon, bellari bukchaygan bobom, yana... «maktabga kech qolamiz» deb tong-sahardan eshigimiz tagida kutib turuvchi Zilol!

Beixtiyor boshimni ushladim. Ho-ov paytdagi — kesak tekkandagi og'riq qaytalandi. Tavba, manglayim jimirlab, qosh-ko'zim achishdi.

♦ ♦ ♦

O'rdakchi momoni tanimadingiz-a? Bilsangiz, Ovro'pa tomonlarda uning dovruqi baland. Ayniqsa, u to'qigan misralar el orasida ma'lum va mashhur. Bordi-yu o'qigan yoki eshitgan bo'lsangiz, jahon folklorida «canard» degan atama bor. Lug'aviy ma'nosi — «o'rdak». Mohiyatan esa «yolg'on xabar» birikmasiga to'g'ri keladi. «Maqola boshidan bizni laqqa tushirib, allaqanday yolg'on-yashiq'larga chirmab o'tirgan ekan-sanda», deyishga shoshilmaning. O'rdakchi momoni ham yolg'on xabar tashuvchiga chiqarib qo'y-

maning. Axir o'z xalqini dushmanlar zulmidan, urushning ayovsiz vahshatlaridan ogoh etib (deyilib, o'ziga xabar aslida yolg'on), sergaklikka chorlab turmaganda nimalar yuz berishi mumkinligi haqqida o'ylab ko'rdingizmi hech? Ne bo'lgan-deyaman, o'rdakchi momo — xalqning momosi! Qo'lliyalari ham aynan o'zinki emas, xalqniki:

Mix yo'q edi —

Taga

Yo'qoldi.

Taga tushib,

Ot

Oqsab qoldi.

Ot oqsadi —

Sardor

O'q edi.

Sardor o'ldi,

Qo'shin

Yengildi.

Yov shaharga kirdi,

Qildi xo'b qirg'in.

Nega?

Tagachida mix

yo'qligi uchun.

Momonni endiyam tanimadingizmi? Uni bir gala o'rdaklarni haydab, etak-etak don sepib yuruvchi kamupir desangiz, haliyam tanimabsiz. O'rdakchi

momo — sergaklik timsoli. Qofiyalari esa ana shu sergaklikdan unib chiqqan ezgu xabar, beminmat hosiladi. Ular aksar hollarda ko'zdan panada qoluvchi mayda narsalar aslida mayda emas, o'ta katta sababiyat ekanini uqtirib turuvchi ogohnoma misoli. Jahon folklori tarkibida «O'rdakchi momo qofiyalari»ga yaqin o'zga qofiyalar, o'zga naqlar ko'plab topiladi. Masalan, Ozarboyjon xalq maqollaridan birida bunday deyiladi:

Mix taqani asraydi, taqa — o'tni, ot — mardni,
mard — Vatanni!

♦ ♦ ♦

Oddiydan murakkabga o'sib borgani sayin masalaning zalvori oshadi, yuki og'irlashadi. Harchand oshmasin yoki og'irlashmasin, yechimi yengillashadi (butun boshli qo'shinning yengilishiga, shahar aholisining ayovsiz qirg'in bo'lishiga taqachida mixning yo'qligi sabab bo'lgani kabi). Demak, hech bir voqelik besabab ro'y bermaydi — xoh u bitta shaxsga daxldor bo'lsin, xoh umumiga. Yakka shaxsning boshidan o'tganlari umumniki oldida ko'z ilg'amas zarraddek bir gap. Endi o'zingiz ayting, o'sha tumanli oqshomda odatdagi ust-boshda yo'lga chiqsam, Zilol meni to'xtatarmidi?

Yo'q!

To'xtatmaganida uni ko'rmagan, uni ko'rmaganida o'g'ilini ham tanimagan, o'g'ilini tanimaganida undan she'r eshitmagan va she'r eshitmaganida eadan chiqayozgan xotiralar esga kelmagan, esga kelmaganida boshginamda sachtirib ketgan kesak ta'mini, ehtimol, qayta tuzmasalim.

Yoki o'shanda momomning oyoqlari og'rimaganida, blaklarimning kuchi bo'lganida, serial ko'rishga oshiqib polga sakarmidim?

Yo'q!

Bakramaganimda o'sha joyda yotmagan, yotmaganimda turqi sovuq ilon kaftimga o'rallamagan, men ham uni kaftimda ko'rmagan, ko'rmaganimda olib yubormagan, olib yubormaganimda momomning etagiga tushmagan... «Shagne» sumkanda qolib ketmagan bo'lardi.

O'shanda onam boshqa ro'mol — yaltiroq amasini bog'lab yurganida mayna uchib kelib ro'moldan tortqilamagan, tabiiyki, tortqilamaganida onam o'z ishtiga ovunib, hamon suv sepiyotgan, «voy, voy oyog'ing singur» demagan, men ham o'rimdan hovliqib turmagan, ro'mol masalasini o'ylab topmagan, do'rillamagan... ari ham tomog'imdian jizillatib chaqmagani bo'lardi! Aslida, bularning barchasi yaxlit xotiro, uzviy o'ylan, halqalangani sabablar. Ularning keyingisi o'zidan avvalgisiga daxldor, o'suvchan vajlardir.

Birinchi bo'lmasa, ikkinchi ham yuz bermaydi.
Bu singari sabablarning borgan sari kattarishi o'z-
o'zidan mantiqli. Gohida xatari ham. Eslang:

Yov shaharga kirdi,

Qildi xo'b qurg'in.

Nega?

Taqachida mix yo'qligi uchun.

HAMMAGA BIRDAY GAROYIB TOMOSHA

— Qo'shni uyning shundaygina oldida shotut
o'sardi, Charos. Shoxlari tarvaqaylab ketganidan
bolalar uning tagida tuproq surib «moshin-
moshin» o'ynardik, qizlar «xola-xola»sini bosh-
lab qolardi. Ba'zan daraxtni shamol silkitib,
ustimizga tutlar duv-duv yog'lsa ham parvo
qilmasdik.

— Biz esa qiyqimlardan ko'ylakchalar tikib,
qo'g'irchoqni ming ko'yga solardik: sochlarini
tarab, o'rib, gohida jingala qilib, gul qadab, ro'mol
yopib, munchoqlar taqib, gapitirib... eh-he,
ko'rsangiz, salkam teatr deysiz.

— Shapaloqdek barglarga loydan yasalgan
kulchalarni qo'ndirib, yo'q eshikni taqillatib,
«mehmonga keluvdik», «bezovta qilmadikmi...»
deb, a?

— Bolalik ekan-da, kulmang.

— Balki, qo'g'irchoq teatri mana shunday
tomoshalardan yaratgandir?!

— Yo'g'-a, zotikanda ovungannimiz. Buni
san'at darajasiga ko'larish...

— Yaxshisi, shanbami, yakshanbami, qo'g'ir-
choq teatriga boraylik, keragicha bilib olamizi!

Pashband bir sandiqti, qalbga ishora...

Qo'g'irchoq teatrlarining san'at sifatida yuzaga
keltishi haqida ikki xil qarash bor: birida bolalar
o'zini qo'g'irchoq teatrlarining dastlabki ko'rinishidir
deyilgan, ikkinchi qarashga ko'ra, uning yaratishi
mudofalar teatriga borib taqaladi.

Mamlabarda qayd etilishicha, mamlakatimiz
huhudida yashagan qadimgi xalqlar orasida ruh-
pirlarga ihtirom keng kuzatilgan va buning
natijasida marhumni eslash marosimi paydo bo'l-
gan. Vafot etgan kishining eng yaqin odami uning
mudofal yashab kiygan va marhumning harakatlari,
mudof, muomalasini tiklashga uringan. «Ifrochi»
qo'yo marhum bilan muloqot qilgan. Niqob ba'zan
ko'liga kiyilmasdan, qo'lda tutib harakatlantirilgan.

Bu atabunos olim Muhsin Qodirov «Xalq
qo'g'irchoq teatri» kitobida bu boradagi qarash-
larni ilmiy asoslab, o'ziga xos talqin etadi. Bunda
muallif 1930-yili tadqiqotchi Jalil Qodiriy qo'qon-
ib Muzammahmud Oxundan yozib olgan risoladan
bire alomani keltiradi.

Afsonada aytiladiki, «Qo'g'irchoq devlar va parilar podshohi hazrati Sulaymon payg'am-barning vaqtida bo'lgandir. Ul kishining Hut-hut degan qush elchilari bor edi, bir kun ul xabar berdi: «Men bir katta shaharni ko'rdim, lashkarlari ko'p, podshosining bir qizi bor, ko'p xushro'y, ani olib kelsangiz, ko'p ulug' ish bo'lur erdi», — dedi. Anda hazrat Sulaymon ul podsho bilan urushib, lashkarlarini ham, o'zini ham o'ldirib tugatdilar, qizini olib keldilar. Ul qizning oti Guna erdi. Bir kun shayton kelib aytdi: «E, Guna! Otangni Sulaymon o'ldurdi, endi otangning suratini qildirib olgin, otangni ko'rgandek bo'lasan». Anda ul qiz hazrati Sulaymonga: «Otamning suratini qildirib bering», — deb yalindi. Ul kishi: «Suratchi top, qildirib beray», dedilar. Anda shayton darrov suratchi taqdidida kelib, otasining, lashkarlarining va sarkardalarining suratini qilib berdi. Qachonki ul qiz otasini ko'rgusi kelsa, shayton kelib ul suratlarni ip bilan yurgizib o'ynatib berar erdi. Anda ul qiz otasini ko'rgandek bo'lar erdi».

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida qo'g'irchoq o'yini «shayton o'yini», deb taqiqlashga urinishlar bo'lgan. Sabiy qarashlar harchand el oralamasin, afsona va dalillar qo'g'irchoq teatri-niing uzoq yillik tarixga ega ekanidan dalolat beradi. Shu ma'noda uni xalq orzu-umidlari,

dunyogaranai va intilishlarini o'zida aks ettirgan qalbiniy san'at desak, yangilishmaymiz.

Dunyoda qo'g'irchoq teatri-niing to'rt turi ma'lum va mashhur: qo'lga kiyib o'ynatiladigan, ip bilan boshqariladigan, soyasi tushadigan hamda aktyori ko'rinadigan. O'zimizda tomoshalarning, asosan, ip bilan boshqariladigan turi saqlanib, an'ana ushul olgan. Bu borada Husayn Voiz Keshlarning «Fotuvvatnomai sultoni» risolasi atchida ahmiyatga ega. Mutalakkir olim kitobning oltinchi bob to'rtinchi faslida XV asr va XVI asr tushlarida Huroi, umuman, Xuroson qo'g'irchoq teatri-niing turlari, tuzilishi, qo'g'irchoqbozlarning mahorati, tomosha texnikasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi: «Agar qo'g'irchoqbozlikning shartlari nimadan iborat, deb so'rasalar, aytilgi: namoyi sharti shuki, qo'g'irchoq o'ynatuvchi dono kishilar va haqiqatdan bahra topsin. Qo'g'irchoq o'ynatuvchilarga xos narsalar nima deganda, shodir va peshband (peshtoxta), deb aytilgi. E'lonida kumush, peshbandda esa kechasi o'yin ko'rnatiladi. Peshband deb sandiqni aytadilar. Namoyi ushida qo'g'irchoqlarni o'ynatqadilar. Kumush o'yinlarda qo'g'irchoqlarni qo'l bilan o'ynatadilar, kechki o'yinlarda esa sandiq ushida bir necha ipar engali qo'g'irchoqlarni harakatga keltiradilar... Agar peshtoxta (sandiq) nimaga ishara etadi, deb so'rasalar, odamzod qalbiga

ishoradir, deb aytg'il. Zero, qalb ajoyib sandiq bo'lib, odamning ahvoli, xislatlaridan nishona berib turadi».

San'atning boshqa turlaridan fargi — qo'g'irchoq teatrida aktyor yoki aktrisaning yoshi, chiroyi, qaddi-basti ahamiyati emas, qobiliyati bo'lsa bas. Bunda yoshi ellikdan oshgan ayol o'n sakkiz yashar qizni, oltinishni qoralagan erkak o'ktam va navqiron shahzodani, oriq — senizni, pakana — naynovni, nimjon odam bahodir obrazini gavdalantirishi yoki, aksincha, qiz — cholni, bola esa kampirni talqin etishi mumkin. Ibrochi «butun qobiliyati, hatto husn-latofatini qo'g'irchoqqa bag'ishlaydi» (M.Qodirov). Asosiy maqsad tomoshabin ko'z o'ngida voqealar aynan sodir bo'layotganday tasavvur uyg'otishdir.

— San'atning ushbu turi xalq og'zaki ijodi, badihago'ylikka asoslangan, — deydi Respublika qo'g'irchoq teatri aktyori, II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi Olim Otaboyev. — U bilan havaskorlar emas, layoqatli va iste'dodli ijrochilargina shug'ullangan. Xuddi dorbozlik singari qo'g'irchoq o'ynatishning ham otadan o'g'iliga o'tishi odat tusiga kirgan.

Ha, shogird el-ulus oldida o'z mahoratini namoyon etishga tayyor sanalmaguncha ustoz tomonidan imtihon qilinavergan. Yillar mobaynida qo'g'irchoq o'ynatishga qo'li kelib qolsa ham,

tomosha ko'rsatishga ruxsat tegmagan. Qachonki, uning bilim va ko'nikmalari puxta shakllangach, ustoz oq ko'lba bilan mustaqil ishlashga yo'llanma berib, bitta faoliyatini boshlagan.

Teatrda jo'z, oldinlari qo'g'irchoq tomoshalarida poraxo'r, to'magir, sudxo'r, o'g'ri, kazach — umuman, jamiyat rivojiga xalal berayotgan kimsalar hay-kalaka qilingan. Ular qo'g'irchoqlarining satira tig'iga uchramasdan qolmagan. Hatto obraz va personajlarning nomlanishida ham bunga teboralar sozlanadi.

Masalan, «Chochirjamol» teatriding bosh qahramoni Kachal Polvonni olaylik. «Polvon» so'zi o'z-o'zidan tushunarli. Ammo «kachal» so'zining kuchi bu mavhum. «Xalq qo'g'irchoq teatri» kuchi qayd etilishicha, bu so'z tizzalarining ko'zi bu tizga tegib yuradigan odam yoki jonivorlarga nisbatan qo'llanilgan. Ko'chma ma'noda esa qo'g'irchoq demakdir. Ma'lum bo'ladiki, Kachal polvon — qo'rg'oq polvon. Uning bu tariqa nomlanishida bir tomondan, xalqning hazilga moyil ekani an'iq, boshqa tomondan, ushbu obrazning kuchiga, kannaq, jar'atsiz kishilar tanqid uchun alibogani oydinlashadi.

Bu paytlari o'zida ana shunday qat'iyyatni namoyon etgan qo'g'irchoq tomoshalarini bugun hamon boshqarib borilayotir. Endilikda katta g'urur bilan qo'g'irchoq teatrida go'yo

bolalar uchun ertak sahnalashtiruvchi maskandagi tasavvur etmoqda. O'z vaqtida mashhur chex yozuvchisi Yulius Fuchik bunday hodisadan tashvishlanib, ko'pchilik qo'g'irchoq teatrlari bolalar teatri deb hisoblayotgani, holbuki, XIX asr boshida uni (asosan!) kattalar ko'rgani haqida qayg'urib yozgandi.

— Bugun repertuardan o'rin olgan qo'g'irchoq tomoshalarimiz ertaklar asosida, ammo hammasi ham emas, — deydi Respublika qo'g'irchoq teatri bosh rejissori Shahzoda Eshmuhammedova. — Ularni faqat bolalar uchun deb o'ylash xato. Bilsangiz, tomoshalarda ramzlar tilga kiradi. Bolalar esa tulkini tulki deb tushunadi, quyoni quyon deb. Majozan olib qaraganda, tulki ayyor va mug'ombir, quyon gohida qo'rqoq, ba'zan maqtanchog odamlarga ishora. Menimcha, qo'g'irchoq teatrining maqsadi chodir ortidan turib shunchaki tomosha ko'rsatish emas, auditoriyaga oq-gorani tanitish, yaxshi-yomonni farqlashga o'rgatishdan iboratdir.

Sirg'ali tumanidagi 285-maktab o'quvchisi Sardor Oxunjonov ko'pdan tomoshaga intiq ekan chog'i, ko'zlari chaqnaib gapirdi:

— Tog'am bilan tez-tez qo'g'irchoq teatriga kelamiz. Bu gal «Fotimaning sarguzashtlari» spektaklini miriqib ko'rdik. Menga to'tiqushning uddaburonligi, mushukcha Moshning qo'rqmas

va devayirakligi, hammasidan ham ko'zchasidagi bir kichik suvni o'zlari ichmay, qurigan chinorga tashlagani yoqdi. Keyin chinor Fotima va Moshni yuvsa ko'dapodan barglari orasiga yashirib qo'yganida quvonib keldim.

— Shunda kimga o'xshash kerak ekan? — bo'lib bolakaydan.

— Moshga! — javob berdi u.

— Fotimaga-chi?

Keyin o'ylanib, tasdiqlab, bosh chaygadi Sardor.

— Ha.

— Fuchik, haqiqat, oxirigacha qo'rqmadi, — deya qo'zilib qo'ydi.

— Bosh gap ko'tarmaydi. Unga soatlab pand-nasihat o'qit beraverishning samarasi yo'q, — deydi bir talifdori Shahzoda Eshmuhammedova.

Asosan xatti-harakatlar unga qiziq tuyuladi. Shuning uchun qiziq yoki eilik daqiqada davom etadigan spektaklda q'oyani harakatlarga, obraz keraklariga alaydirlashga urinamiz. Bunda bolal bolalar emas, ota-onalar ham o'zi uchun ancha chiqarib ketadi. Tomoshabinlarning iliq muvohabati, minnatdorliklarini eshitib, ishlarimiz bizni kutayotganidan quvonamiz.

— Qo'g'irchoq teatrida korfarmon yoki bosh-boshlarga tomoshabinlarni bevosita kuzatish imkoniga ega, — deydi yosh aktrisa Dilдора Shermatova. — Moshlovchi-man. Sahna va zal orasi

yaqin ekani sababli gohida bolajonlarning bir-biridan qiziq so'zlari qulog'imga challindi. «G'aroyib musobaqa» spektaklini taqdim etayotgandik. Unda quyoning maqtanchoqligi tutib, tipratkanni mazax qiladi. «Oyoqlaring kalta» deb ustidan kuladi. Shu-shu, ular yugurish bo'yicha kimo'zar o'ynashib, musobaqa joyini hamda vaqtini o'zaro belgilab olishadi. «Ertaga uchra-shamiz», deydi quyon tipratkanga. Ana shu sahna o'ynalayotganda zal tomondan bolakaylardan biri: «Endi biz ham ertaga kelamizmi, dada?» deb qoldi. Shunday paytlari tomoshabin bizni jonqulog' bilan tinglayotganini sezaman. Mehnatimizga eng munosib rag'bat, aslida mana shu. O'zini parda ortiga «Yashirib», bor iste'dodini qo'g'irchoqqa baxsh etayotgan aktyor-aktrisa uchun shuguna e'tiborning o'zi kifoya.

Umuman, bunday manzara bizga tanish. Respublika qo'g'irchoq teatrida qariyb yigirma yildan buyon sahnadan tushmayotgan «Fotimaning sarguzashtlari» spektaklini ko'rayotganimizda qiziq hol ro'y berdi. Bosh qahramon Fotimani mashaqqatlarga uchratgan Ro'dapo baqirib-chagirib, u bilan mushukchasini qo'rqitayotgan paytda to'rt-besh yashar bolakay sahnga yugurib chiqdi. Qo'llarini oldinga sermab, yordamga shoshildi. Boshlovchi qiz bolakayning qo'llaridan asta tutib, uni tinchlantirdi-da, joyiga eltdi. Bu

holatdan zaldaqlarning bari hayratlandi. Kimdir kuchi, kimdir «oyo» deya ajablandi, teatr esa o'z inqirofiga yetdi! Jajji tomoshabinini ishonтира

Aslida, bugun maktab yoshiga yetgan bolakayning aqli shabdoys. Masalan, ular qo'l telefonidan o'z o'ziga qareganda durustroq foydalanadi, kompyuterni yaksalroq tushunadi. Pulni qo'lga olib, televideni u kanaldan bunisiga o'zgartirish uchun bir uch yashar bolakay uchun ham cho't emas. Texnika-texnologiyalar o'z yo'liga, qo'g'irchoq teatri bugun imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga qanchalik salafbar etayotgani bilan qiyoslanadi.

«Elaq qo'g'irchoqlarda emas...»

Teatr kuchi, uning tarbiyaviy ahamiyatini muvaffaqiyatli qayd qilgan bot-bot ta'kidlashgan. Shunga qaramay, bu san'atning hayotimizda tutgan o'rnini ulkan saboq maktabi ekanini ba'zan unutilib qo'yamiz. Bunda bolaning ruhiy olami, shaxsiyatini, bilimni kengayishiga, nutqi ravonlashishiga, xarakterini yuzasidan xulosa chiqarish qobiliyatini shakllanishiga e'tibor beravermaymiz. Bolamizda jihat qo'g'irchoqning tilga kirishi, kuchi, yig'ishi — xullas, tirik mavjudotdek harakatlanishi holida labonch hissiyati uyg'otadi. Hatto hayvon, hasharot, daraxt, o'simliklarning

«tili borligi» unga inson va tabiat uyg'unligini, ularning o'zaro bog'liqligini tushuntiradi.

— Bola o'z-o'zidan teatrga kelmaydi. Uni kimdir yetaklashi, o'rgatishi lozim, — deydi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi, dotsent Maryam Ashurova. — Ko'pincha maktab o'quvchilari guruh-guruh bo'lib, belgilangan kuni teatrga boradi. Lekin bu kam, Ota-ona farzandi bilan oyda bir marotaba bo'lsa-da tomoshaga kelsa, bolasining didi, saviyasi oshishiga, ma'naviyati boyishiga ko'maklashadi. Tushunishimiz kerakki, yuqori formatda ishlangan multfilm, turli animatsion lavhalarga qaraganda spektakl va tomoshalar kuchliroq ta'sirga ega.

Qo'g'irchoq teatrining tomoshabini ishontrish quvvatiga ega ekanini bilamiz-u, nima uchundir gamrov masalasiga kelganda tomosha zalidagi ko'pgina o'rindiqlarning bo'shligi ustidan chiqamiz. Ehtimol, bunga ota-ona, oilaviy muhitning turtaligi sababdir. Faqatgina bir tomonni muamoga sababchi qilib ko'rsatish ham noo'rin.

Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi, teatrlarning texnik imkoniyati, dizayn va rassomlik ishlari vogueani tomoshabinga tezroq yetkazadi. Bolani esa dastavval asarning mazmuni yoki falsafasi emas, qo'g'irchoqlarning ko'rinishi, sahna dekoratsiyasi, chiroqlarning rang-barangligi qiziqitiradi. Mavzu bo'yicha subbat o'lkazayotganimizda

qo'g'irchoq ustalaridan biri o'zi ko'rgan holatni aytib beradi. Bundan o'n yilcha muqaddam xizmat ko'rsatibkan xorijiy mamlakatlardan biriga borganida, uning tabiatidagi chiqishlarni ko'rdi. Subbat asnosida uning qo'liga ego'liq qo'g'irchoq berishadi. Buni va ko'rsatkich barmoqlarini biroz qimirlatganida qo'g'irchoqning yengil harakatidan uning hayrati oshadi. U hech bir qiyinchiliksiz, qaratilgan o'z ta'limiga o'zgartirish mumkinligini ko'rib, o'z-o'zidan buning sababini so'raganda, uning bu bati eng soddada qo'g'irchoq ekanini aytib beradi.

Teatrlarning xorijiy ta'limini ko'rganiga o'n yildan o'tib, lekin o'zimizdagi qo'g'irchoq teatrlarida ayni yangilik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilayotgani sezilmaydi. Bugun zamonaviy akrobat texnologiyalari, ilm-fan taraqqiy etayotgan bir davrda teatrdan hamon o'tilgan aerning qo'g'irchoqlari o'yinlab kelmoqda.

Zamonaviy, mukammal texnologiyalarni qo'g'irchoq uchirishida ancha buyon gapiradigan buning ta'limi qo'g'irchoqsozi, rassom yoki teatrlarning talab-xohishi emas, balki malakali mutaxassislar jamoasi kerak, — deydi dotsent Maryam Ashurova. — Agar to'rt kishi: rassom, mutaxassis, haykaltarosh va qo'g'irchoq ustasining amaliy ta'limi, fikr-o'ylari uyg'unlashsa va,

albatta, u amaliyotga tabiiq etilsa, muammo hal bo'ladi. Buning uchun institutimiz bilan Kamoldin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ysa, soha mutasaddilari tomonidan turli tanlovlar o'tkazilsa, maxsus grantlar ajratilsa, rag'batlantiruvchi dasturlar e'lon qilib borilsa, o'ylaymanki, qadamlar tetiklashib, jarayon jonlanadi: «Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqatning oz bo'ladi».

Umuman, bola qachon ulg'ayadi? Uning shaxsga aylanish payti qachonligini bilamizmi? Ehtimol, huquqiy hujjatlar, tibbiy varaqalarda bolaning shaxs maqomi muayyan yosh bilan belgilangandir. Bunday deyilsa, atrofinizda yoshi o'ttizdan oshib ham bolalik xayollari, fikrlari bilan yashayotgan yoxud yetti yoshga kirmay turib kattalardek mulohaza yuritayotganlar ozmi?! G'arbliklar mazkur jarayonni «bola o'zini-o'zi iqtisodiy tomondan ta'minlay olgan paytdan boshlab shaxsga aylanadi», deya izohlaydi. Sharqda esa boshqacha: mustaqil fikri, o'z «men»iga ega odam shu nomga erishadi. Demak, biz bilgan va bilmagan sabablar shaxslashish jarayonini tezlashtiradi yoki aksincha. Nazarimizda, qo'g'irchoq teatrining tub mohiyatida bolani shaxslantirish istagi bordek. Negaki, parda ortidagi voqea, salbiy va ijobiy xarakterlarning kechinmalari, yaxshilik hamda yomonlikning azaliy kurashi bolaga hayot-

ning oq yora tomonlarini tanitadi, uni xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Tomoshalar o'z nomi bilan jamoa ishi, — deydi dotsent Maryam Ashurova, — Bu holni tashkilotga ko'proq jahon qo'g'irchoq teatrlari ta'biyati bilan qiyoslab o'rgatishga urinaman. Hozir toqqulash tabiiy etishga imkon beradi. Shunday ispan kalg tomoshalari, spektakllari o'zining muvaf, repertuarining boyligi, zamon bilan hamohangligi tobe ajralib turadi. Ispaniya hukumati o'zati kelayotgan avlodning madaniyatini oshirish, oshiborlari yashaydigan bolalarning ongini qo'g'irchoq teatri orqali to'libor bering, televideniye qo'g'irchoq teatri vositalari bilan emas!) to'g'iridori ko'zlab tomoshalar uyushtiradi. Shu maqoridha maxsus dastur asosida hududlardan jamoalar qurultlar chekka-chekka qishloq, shaharlarda ispan kalg mentaliteti, urf-odat, an'analarini shug'ullatgan festival va tanlovlar o'tkaziladi. Alene shunday tanlovlar natijasi o'laroq qo'g'irchoq teatri — «Libelula» xalqqa kalgan.

«Hozir, teatri repertuarida ispan bolalarining to'g'iridori, qo'g'irchoq o'laroq ta'sir etuvchi, qo'g'irchoq avvalalari hamda zamonaviy voqealar to'g'iridori yaratilgan sahna asarlari, tomoshalar to'g'iridori dematiyaviye Eimmanuede Lusatning ataridori Fransiya to'g'iridori...» pyesasi xori sahna-

larida, xalqaro festivallarda namoyish etilib, ko'pgina mutaxassislar, teatshunoslarda ijobiy fikr uyg'otgan. Asarda rissar Reynaldoning qiyinchiliklarga to'la sarguzashtlari, ajdarho-yu sehngarlar, shoh-sultonlar bilan kurashi, go'zal malika Gaddoni qutqarishi, afsungar do'sti Uruberlning sadoqati misolida qahramon xarakteri ochiladi. Ispan qo'g'irchoq tomoshalarida soya teatrlarning oq-gora va rangli qorishma texnikasidan foydalanilgani uchun turli effektlar, rang-barang chiroqlar yordamida spektaklning jozibasi, ta'siri oshirish mumkin.

Mamlakatimizda esa qo'g'irchoq tomoshalari an'anaviy «Chodirxayol» ko'rinishida sahnalashtiriladi. Bugun ularning o'zbek va rus tillarida namoyish etilayotgani, jahon xalq ertaklariga murojaatlar sohada o'zaro uyg'unlashuvni ta'minlayotir. Ne'mat Habbullayev ijodiga mansub «Fotimaning sarguzashtlari», Dinora Yo'ldoshevaning «Miyovlagan kim bo'ldi?», Sergey Mixalkovning «Uch quvnoq do'mbog'cha», Yevgeniy Speranskiyning «G'aroyib musobaga» kabi sahna asarlari, Mixail Suponinning «O'jar quyuncha»si, Pavlovskiyning «No'xat-bola»si, Natalya Gernet hamda Grigoriy Gurevichning «G'ozcha»si, Nurilla Abbosxonning «Qutloqiz ulog'cha»si teatrga tashrif buyurayotganlar tomonidan iliq kutib olinmoqda. Shunga qaramay,

teatr ta'limiyatida, shuning, repertuari, malakali kadrlar masalasida qanday yangiliklarga qo'l erishilgan o'qibolindi.

Umuman olganda, repertuarimiz yangi janrlarga muvofiq – deydi Shabzoda Eshmuratova – sahna asarlarimizning ko'pi chet mamlakatlar ta'limiyatiga mansub, lekin bu – ularni yaratish olingan bida rus yoki ingliz bo'lib qoladi degani emas. Ularida ham umuminsoniy g'oyalar, ularning muvaffaqiyat, yashash va ezigulik tantanasi, shahar hayoti, Ayat kunlarda teatrlarimizga taqdim etilayotgan senariylar anchaqina. Biroq ularda na sahna shoumaning hissiyotiga olingani, na bola o'qigani va ularni yashash sozlash.

Shu sababli ko'proq xalq ertaklarini sahna-landirgani, ularni yil «Zunrad va Olmatis» shahar shouman etiblar kiritish hamda «O'jar quyuncha» asarlarini repertuariga kiritdik.

«O'jar quyuncha»ni ko'rib kelib chiqadigan xulosa shuki, bu sahna shouman – malakali kadrlar, ularning muvaffaqiyat masalasidir. Bugun Respublikamiz qo'g'irchoq teatrlarida aktyorlarning ko'pincha yashash o'chi, ular ular ustozlarning

hamda shouman, shouman, repertuari, malakali kadrlar masalasida qanday yangiliklarga qo'l erishilgan o'qibolindi.

mahorat maktablarida ko'proq saboq olib, chiniqishlari zarur.

Bunda qo'g'irchoqlar vosita, xolos. Aloqli rus etnografi Pyotr Komarov ta'bir bilan aytganda: «Gap qo'g'irchoqlarda emas, balki xalqni qo'g'irchoqlar atrofida to'plovchi pyesalarda». Demak, faqat qo'g'irchoq o'ynatishga emas, balki yetuk pyesalar tanlanishiga ham e'tibor qaratish zarur. Buning uchun xorijiy mamlakatlarning qo'g'irchoq teatrlari yangiliklarini, teatrlardagi professional aktyor-aktisalarining tajribalarini, o'zaro hamkorlikni izchil yo'lga qo'yish o'rindir.

Shunday ekan, o'yinchoqlarni ovutish-ovunish uchungina o'ylab topilgan vosita deb tushunmaslik kerak. Ular ustasi qo'lida tom ma'noda ma'naviyat maktabiga aylanadi. Shuniisi bilan ham qo'g'irchoq teatri aktyorga zavq-shavq, ijodiy quvvat beradi.

— Eh-he, shularning barini «moshin-moshin», «xola-xola»dan kelib chiqqan deb o'ylabman-u,

Charos!

— Nimasini aytasiz, og'a. Men bo'lsam qiy-qimlardan ko'ylakchalar tikkamiz, deb yuribman-u.

M U N D A R I J A

Chingizlar mehribon Vatani — omangl.....	3
Ular va kumush	9
Ular va qo'g'irchoqlar	15
Ular va qo'g'irchoqlar — omangl.....	28
Ular va qo'g'irchoqlar — omangl.....	38



Adabiy-badiiy nashr

BIRINCHI KITOBIM

Akmal Murod

KO'Z OCHGAN BULOQLAR

Publitsistik maqolalar

Muharrir Umida Rajabova

Badiiy muharrir Jahongir Badalov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahhih Umida Rajabova

Main tervichi Gulchehra Azizova



Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2010-yil
15-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 60x90^{1/2}. O'lset 90g/m².
Balticaliz garnituras. Shartli bosma tabog'i 1,75. Nashr
tabog'i 1,83. Adadi 20000 nusxa. Shartnoma № 60 - 2010.
Buyurtma № 362.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Chetlpon
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent.
Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyatli
cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200.
Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.